

MEHNAT XAVFSIZLIGI BOSHQARISHNING DAVLAT TIZIMI

Ismoilova Nodira Sodiqjon qizi,

Ergasheva Gulnora Axrorjon qizi

Farg'ona Politexnika Instituti MMTX 98_20 guruh talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqola, Mehnat xavfsizligini boshqarish [tizimining birdan bir maqsadi](#), mehnat muhofazasi qonun-qoidalariga ishchi va xizmatchilarning e'tiborini oshirish, sog'lom va xavfsiz ish [sharoitini yaratishni yagona](#), to'g'ri yechimini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishda tatbiq etishga tavsiya qilish va boshqalar haqida.

Kalit so'zlar: mehnatni muhofaza qilish, mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi, tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari, mehnatni muhofaza qilish auditi mezonlari, mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazishda mustaqillik.

Аннотация: Цель данной статьи – повысить внимание рабочих и служащих к законодательству об охране труда, определить единственное правильное решение по созданию здоровой и безопасной рабочей среды и рекомендовать его внедрение на производстве.

Ключевые слова: охрана труда, система управления охраной труда, аудит системы управления охраной труда в организации, профессиональные участники рынка в области охраны труда, критерии аудита охраны труда, независимость при проведении аудита охраны труда.

Abstract: The purpose of this article is to increase the attention of workers and employees to labor protection laws, to determine a single, correct solution for creating a healthy and safe working environment, and to recommend its implementation in production. about doing etc.

Key words: labor protection, labor protection management system, audit of the labor protection management system in the organization, professional market participants in the field of labor protection, labor protection audit criteria, independence in conducting a labor protection audit.

Mehnatni muhofaza qilish —mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi xisoblanadi. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimida ma'lum bir ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi siyosati va maqsadlarini belgilovchi, o'zaro bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi elementlar kompleksi hamda ushbu maqsadlarga erishish tartibidir.

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi mehnatni muhofaza qilish tizimini baholash ish beruvchining qaroriga binoan o'tkaziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

- mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishlashi sifatini, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga, darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Mehnatni muhofaza qilish auditi mezonlari audit ma'lumotlari, mehnatni muhofaza qilish siyosati va tartibi hamda chora-tadbirlari bilan solishtiriladigan tahliliy ma'lumotlar xisoblanadi.

Mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazishda mustaqillik tekshirilayotgan subyektga nisbatan moliyaviy, mulkiy, qarindoshlik yoki boshqa manfaatlarsiz mehnatni

muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari bilan ta'minlash tamoyili.

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilish tizimida auditni o'tkazish ish beruvchining qarori bilan mazkur Nizomga ilova qilingan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi, tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda jamoa kelishuvlariga, shartnomalariga va boshqa lokal talablariga me'yoriy hujjatlarning muvofiqligini aniqlash, mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi faoliyat yuritishini sifati, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining darajasini kamaytirish va oldini olishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini baholash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining ularning oldini olishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish. Tashkilotda mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazish mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari Yagona reyestriga "mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazish" xizmat turi bo'yicha kiritilgan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazilgan va uning natijalari ko'ra aniqlangan barcha kamchiliklar bartaraf etilgan (yoki kamchiliklar aniqlanmagan) tashkilotlar, keyingi uch yil mobaynida mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida tashkilotlarda o'tkaziladigan rejali tekshirishlar ro'yxatiga kiritilmaydi. Mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazish mustaqillik, xolislik, kasbiy mahorat va maxfiylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Tekshirilayotgan tashkilot quyidagilarga majbur:

auditor tashkilotiga mehnatni muhofaza qilish auditining o'z vaqtida va to'laqonli o'tkazilishi uchun ko'maklashish, zarur ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish, auditor tashkilotining so'rovlariga asosan og'zaki va yozma shaklda audit maqsadlariga taalluqli

bo'lgan masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish, mehnatni muhofaza qilish auditi o'tkazilayotganda tahlil va baholash uchun mo'ljallangan masalalar ko'lamini qisqartirishga, shuningdek mehnatni muhofaza qilishga oid maqsadlarga tegishli bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni yashirish (cheklash)ga qaratilgan oldindan ko'zlangan xatti-harakatlarni sodir etmaslik.

Mehnatni muhofaza qilish auditi o'tkazilayotgan tashkilot tomonidan zarur bo'lgan hujjat va ma'lumotlar taqdim etilmasa yoki audit tashkil etish uchun zarur bo'lgan sharoitlar ta'minlanmasa auditor tashkiloti audit o'tkazishdan bosh tortish huquqiga ega.

Auditor tashkiloti quyidagilarga majbur:

tekshirilayotgan tashkilotga audit boshlanishidan oldin auditor tashkilotining qonunchilikda belgilangan mehnatni muhofaza qilish auditini o'tkazish talablariga muvofiq bo'yicha rasmiylashtirilgan asosni taqdim etish, mehnatni muhofaza qilish auditi hisobotida mehnatni muhofaza qilish talablarining buzilishi faktlarini hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni yoritish, o'tkazilgan mehnatni muhofaza qilish auditlari hisobotlari va xulosalarining kamida besh yil muddatda saqlanishini ta'minlash.

Yuqoridagilar mehnat xavfsizligini boshqarishning davlat tizimining asosiy me'zonlari hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan davlat va xususiy tashkilotlarda yetarlicha kamchilik va muammolar mavjud. Kundan-kunga ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda, ushbu korxonalar va tashkilotlarda faoliyat turiga qarab ishchi xodimlarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yetarli darajada emasligi, ma'sul raxbarlarning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalarga panja ortidan qarashi, hamda mehnat xavfsizligi tizimini shakllantirish uchun malakali kadrlar yetishmasli oqibatida inson xayoti bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalar yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O'RQ-410-son 2016-yil 22-sentabr.
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son [qarori](#)
3. LEX.UZ sayti.